XAYRIDDIN SULTON “OLIS “ARTEK” HAQIDA XOTIRALAR” HIKOYASI VA BADIIY ASARLARDA IMPLITSIT QATLAM

Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabining ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi Abdullayeva Gulmira
va o`quvchisi O`rolova Dinora

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada adabiyotshunoslikda implitsitlik atamasi va badiiy asarlardagi implitsit ma’noning vazifasi, faolligi hamda ishtiroki haqida bayon qilingan. Implitsit tushunchasi Xayriddin Sultonning “Olis “Artek” haqida xotiralar” hikoyasi orqali ochib berilgan. Hikoyada bolaning pok nigohi, kambag’allik, yurt sog`inchi bilan birga jamiyatdagi tengsizlik, nohaqlik kabi jihatlar ochib berilgan. Qolaversa, “oddiy insonlarning qismati hamisha, hamma joyda bir ekanini, ularning hasrati ham, saxovati ham, muhabbati va nafrati ham aslida yagona ekanini” anglatadi.

**KALIT SO`ZLAR:** Artek, implitsit, notenglik, kambag`allik, A’lochi bola, yashirin ma’no, eksplitsit, detall, adabiyot, badiiy asar.

Adabiy asarlarda ko`pincha ijodkor o`quvchiga anglatmoqchi bo`lgan ma’noni ochiq aytishdan ko`ra uni turli detallar, obrazlar, badiiy tasvirlar orqali yashirin ifodalab, xulosa qilishni mushtariylarning o`zlariga havola qilib qo`yadi. Bunday yozilgan asar ma’no jihatdan muhokamalarni yuzaga chiqarishi, chuqur mazmunga egaligi bilan ahamiyatlidir. Implitsitlik – matnning yashirin, tag ma’nosi - yozuvchi va o`quvchi o`rtasidagi kognitiv- kommunikativ ko`prik bo`lib, u orqali matnda aks etmagan yashirin mazmun, nazarda tutgan g`oya, qadriyatlar anglashiladi. Asar voqealari sodda syujet asosida qurilgan bo‘lsa-da, uning ichki semantik qatlamida jamiyat, insonlar, orzu va imkoniyatlar muammosi chuqur aks etadi. Eksplitsit qatlam esa ma’noni ochiq ifodalaydi,

yozuvchi vaziyatni, muammoni va xulosa qilish kerak bo`lgan mazmunni ochiq-oydin yozgan bo`ladi, bunda kitobxon asardagi holatni o`z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda emas, aksincha, muallifga hamfikr tarzda tushunadi, bundan ta'sirlanadi, xulosa chiqaradi va g`oyasi nima ekanligini anglab yetadi. Implitsit ma'no esa xulosa qilishni ko`p hollarda o`quvchining o`ziga qo`yib beradi. U yashirin bo`lsa ham badiiy asar mavzusini ochib berishda faol ishtirok etadi. Ernest Heminguey gapi bilan aytganda asarning yozilgan qismidan yozilmagan qismi muhimroqdir.

Shunday ma'no ifodalagan asarlarga misol tariqasida zamonaviy o`zbek adabiyotining taniqli vakillaridan biri, hikoyachilik janrining ustasi bo`lgan Xayriddin Sulton qalamiga mansub "Olis "Artek" haqida xotiralar" nomli hikoyani tahlil qilamiz. bir A'lochi bolaning maktabda yaxshi baholarga o`qishi, zehni o`tkir va faolligi sabab Artekka, oromgohga jo`natish uchun tanlanganligi haqidagi voqealar bayon qilingan. Bolaning otasi yo`q edi, onasi esa farrosh bo`lib ishlaydi, kambag`allikda kun kechirayotgan bu oilada oltita farzand bor edi. Uning ketishi uchun yaxshi kiyimlar va yana kerakli narsalar xarajati uchun onasi tog`asidan yordam so`raydi. Biroq bola onasi va ukalarini bu ahvolda qoldirib o`zi olis jannatmakon joylarda mazza qilib yurishdan vijdoni qiynalib oromgohdan voz kechadi. Hikoyada yana bir qahramon Sabrie opa degan tatar ayol bolaning Qrimga borishini eshitib uni izlab keladi va Artekdagi buloqdan suv olib kelishni iltimos qiladi. Bola uning iltimosini bajarishga va'da beradi, biroq borolmay qoladi. Ancha vaqtdan keyin Sabrie opa bolani yana bir marta yo`qlaydi, uni noumid qilmaslik uchun bola uydan oddiy suv olib chiqib berib uni juda xursand qiladi. Biroz vaqtdan so`ng bola biladiki, Sabrie opa vafot etgan bo`ladi.

Xayriddin Sulton asarlari haqida Umarali Normatov: "Bu asarlar shaxs jumbog'i, inson ruhiyatidagi sirli-sehrli xususiyat, holatlarni alohida bir nazokat bilan teran anglash hamda nafosat tuyg'usiga yo'g'rilgan holda ifoda etish san'ati bilan milliy nasrimizda o'ziga xos hodisaga aylandi",-deydi.[1] Xayriddin Sultonov asarlarida hayotdagi oddiy hodisalar qalamga olinadi. Kishilarning kundalik hayoti, tashvishi, intilishlari, o'zaro

[1] file:///C:/Users/User/Downloads/4-24%20(1).pdf

munosabatlari haqida hikoya qilinadi. Yozuvchi qissa, hikoyalari uchun, asosan, oddiy odamlarni qahramon qilib oladi. Ularning ruhiy kechinmalarini ishonarli va ta'sirchan gavdalantiradi. Yuqoridagi hikoya ham oddiy qishloq bolasi haqida yozilgan. U bir marta o`qilganda tushunilishi juda oson, shunchaki bir bolaning yoshlik xotiralariday tuyuladi, lekin sinchiklab qaralsa, yozuvchi implitsitlar orqali bir qancha yashirin ma'nolarni ifodalagan. Ijodkorning mahorati ham aynan mana shunda ko`rinadi. Ushbu hikoya badiiy matnning implitsit qatlamlari orqali inson hayoti, ijtimoiy tengsizlik va ruhiy jarayonlarning murakkabligini yoritib beruvchi asarlardan biridir. Asarda voqealar sodda syujetda tasvirlangan bo‘lsa ham uning ichki mazmunida yashiringan g‘oyaviy qatlam muallifning g`oyasini ochishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Hikoyada bevosita aytilmagan, ammo detallar, obrazlar, nutq va foydalanish orqali anglashiladigan mazmun ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Hikoyadagi muhim implitsitlikni tashkil etuvchi konseptlardan biri kambag‘allikdir. Matnda “kambag‘allik ayb emas” degan fikr bir necha bor takrorlansa-da, syujet aynan kambag‘allik tufayli orzusiga erishish uchun to`sqinlik qiladigan omil sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yerda o‘quvchi “kambag‘allik ayb emas” degan fikrning ijtimoiy hayotda to‘liq amal qilmasligini ilg`aydi, uni inson imkoniyatlarini cheklovchi kuch sifatida ko`radi.

Yana bir e'tiborli jihati Bozorov va Hikmatov kabi obrazlar orqali nafaqat jamiyatdagi tengsizlik, balki adolatsizlik ham mohirona tarzda silliq qilib hikoyaga singdirilgan. Hikoyada voqealarga unchalik aloqasi bo`lmagan Bozorov va uning xotini o`rtasidagi tushunarsiz kelishmovchilik o`quvchini o`ylantirib qo`yadi. Bu hol tez-tez takrorlanib keyinchalik A'lochi bola sayohatni inkor qilgandan keyin bu janjal tinchib hammasi iziga tushib ketganini ko`ramiz. Bozorovning: “Yaxshiyamki, o`zi “otvod” bergani... Bechora, borganda tuzuk bo`lardi”,[2] - degan gaplari orqali uning maqsadi aniqlashadi. Bunday yashirin, avval e'tiborimizdan chetda qoladigan, keyin esa o`ylashga majbur qiladigan jumlalarga izohni muallifning boshqa bir hikoyasidan topdamiz. Xayriddin Sulton

[2] Xayriddin Sulton, “Uch yuz oltmish to`rt kun”, T.: “O`zbekiston”, 2019, B-332

“Go`zal Qrim” nomli hikoyasida ushbu hikoya haqida yozar ekan shunday deydi:”Lekin orada bir nohaqlik bo`ldi-yu, “Artek”ka borish menga nasib etmadi”.[3] Bundan tushunish mumkinki, bu hikoyadagi A’lochi bola yozuvchining o`zi ekan va bu voqea ham shaxsan o`zining hayotida sodir bo`lgan. Qolaversa, beg`ubor orzulari ortidan ergashib borayotgan, mehnatlari evaziga erishayotganlari uni shunday olis, jannatmisol o`lkalarga eltayotganidan behad sevingan bolakayning quvonchi nohaqlik tufayli uzoqqa cho`zilmaydi, ham kambag`allik, ham jamiyatdagi nosog`lom fikrlar yosh bola yuragida ruhida chuqur jarohat qoldiradi.

Hikoyadagi yana bir asosiy detall O. Genrining “Farishtalar hadyasi” nomli hikoyasini eslash bilan boshlab shu hikoyaga xulosa berish bilan tugallanganligidir. Dastavval, bu hikoyaga uning qanday aloqasi bor degan savol qiynaydi. Biroq u hikoyani o`qib chiqqandan keyin yana bir ma’no tushuniladi. “Bir kuni tasodifan O’Genrining “Farishtalar hadyasi” degan hikoyasini o`qib qolmaganimda, ko`p yillar muqaddam yuz bergan bu voqea balki butunlay yodimdan chiqib ketgan ham bo`lardi. Hikoyani qayta o`qigach oddiy odamlarning qismati hamisha, hamma joyda bir ekanini, ularning hasrati ham, saxovati ham, muhabbati va nafrati ham aslida yagona ekanini anglab, qattiq hayratga tushdim”,[4] - deydi yozuvchining o`zi. Ikki hikoyada ham insonlarning o`zaro muhabbati, bir-biriga bo`lgan mehri sabab bir-birlari uchun hamma narsadan, garchi bu fidoyilik besamar ketgan taqdirda ham, voz kecha olishini isbotlaydi.

Hikoyaning yana bir asosiy qahramonlaridan biri Sabrie opa obrazidir. Uning siymosida biz vatanidan yiroqda yashayotgan insonning o`y-xayollari, kechmishlarini his qilishimiz mumkin. To`g`ri, asarda u haqda ko`p gapirilmagan, yoki uning dard-alamlari so`zlab berilmagan, lekin uning bu hayotdagi birgina niyatning ortidan quvishi, Qrimga ketayotgan bolani izlab kelib unga aytgan gaplari bizga Sabrie opaning kim ekanini tushuntirib beradi. Vatan sog`inchi bilan yashayotgan insonning shu bola tufayli so`nggi istagining “amalga oshishi” va bundan tuygan qoniqish hissi bilan bu hayotdan ko`z yumgani o`quvchining tuyg`ularini junbushga keltirmasdan qo`ymaydi.

[3] Xayriddin Sulton, “Navoiy-30”, T.: “Mashhur-press”, 2021, B-168
[4] Xayriddin Sulton, “Uch yuz oltmish to`rt kun”, T.: “O`zbekiston”, 2019, B-332

Xulosa qilib aytganda, implitsit qatlam kichik asarga ham ko`p va xo`p ma’nolarni sig`dira olishda ulkan ahamiyat kasb etadi. Albatta, deyarli hamma asarda ham bunday yashirin ma’nolar uchraydi bu esa ijod mahsulining ta’sirini yanada kuchaytiradi. Yuqorida tahlil qilingan hikoyada ham yozuvchi ta`’kidlamoqchi bo`lgan alohida- alohida ma`nolar bir-biriga juda mohirlik bilan bog`langanini ko`rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xayriddin Sulton, “Uch yuz oltmish to`rt kun”
2. Xayriddin Sulton, “Navoiy-30”
3. file:///C:/Users/User/Downloads/4-24%20(1).pdf